

## BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI VA O‘QISH DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING NUTQIY KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

**Muminova Dilafro‘z Akbaraliyevna**

Namangan davlat universiteti

Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim

kafedrasi mudiri,

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor v.b

[dilbarxon2008@mail.ru](mailto:dilbarxon2008@mail.ru)

Namangan davlat universiteti

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

**Mirsodiqova Gulhayo Shokirjon qizi**

**Annotation** Mazkur maqolada, boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish darslarida o‘quvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini rivojlanishiga oid turli xil texnologiyalardan foydalangan holda dars jarayonini tashkil qilish, texnologiyalarni dars jarayonida qo‘llashga doir manbalar taqdim etilgan.

**Keywords.** nutq, faoliyat, til, metod, lug‘at, interfaol, ona tili, o‘qish, so‘z birikmasi, gap, matn, boshlang‘ich, o‘quvchilar, maktab, bog‘lanishli nutq.

Insoniyat tarixida tilga doimo katta e’tibor berib kelingan. Ma’rifatparvar Abdulla Avloniy “Har bir millatning dunyoda borligini ko‘rsatadurgan oynai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur” degan aniq va teran fikrlarni bayon etganda naqadar haq edi.

Ta’lim-tarbiya sohasida zamonaviy o‘qitish metodlari, ta’lim standartlari, yangi darslik va o‘quv qo‘llanmalarni yaratish zarurligi, bilim berishda chet eldagiligi or tajribalardan hamunumli foydalanish, yosh avlod tarbiyasida esa milliy an‘analarga suyanish kerakligi Prezidentimiz tomonidan ham ta’kidlandi. "Ulug‘ allomalarimiz – Mirzo Ulug‘bek va Muhammad Xorazmiy nomidagi iqtidorli bolalar maktablari, Hamid Olimjon va Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibrohimjon Yusupov, Ishoqxon Ibrat, Muhammad Yusuf, Halima Xudoyberdiyeva nomlari bilan atalgan ijod maktablari, "Temurbeklar maktabi", "Prezident maktablari", xususiy maktablar singari yangi zamonaviy namunadagi ta’lim dargohlari tashkil etilgani yurtimiz farzandlari uchun ta’lim-tarbiya olish borasidagi yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda.

Hozirgi davrda ta’limming asosiy roli o‘sib kelayotgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining davlat va jamiyatda muvoffaqiyat qozonish uchun, kelajakda zarur kasb-hunarni egallashi uchun, zarur bilim va ko‘nikmalarini tushunarli tarzda o‘quvchi qalbiga singdirishdan iborat. Bu esa o‘z navbatida hozirgi zamon pedagogidan juda katta e’tibor, mas’uliyat, kuch va g‘ayrat talab qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqiy ko‘nikmalarining rivojlanishida darslikda berilgan topshiriqlar tarbiyaviyligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. O‘quvchi nutqiy ko‘nikmalarini rivojlanishda turli xil interfaol metodlardan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Metodlarning bosh maqsadi o‘quvchining erkin,



mustaqil fikr yuritishga, raqobatga chidamli bo‘lishga, bolalarning darsga va mavzuga qiziqishini ortishida muhim ahamiyatga egadir.

Nutq – kishi faoliyatining turi, til vositalari( so‘z, so‘z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o‘zaro aloqa va xabar, o‘z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta’sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vosilaridan biri sifatida xizmat qiladi. O‘quvchi uchun esa nutq muktabda muvoffaqiyatlari ta’lim olish qurolidir.

Nutq faoliyati uchun, shuningdek o‘quvchilar nutqini o‘stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur.

1. Kishi nutqini yuzaga chiqishi uchun talab bo‘lishi kerak. O‘quvchilar nutqini o‘stirishning metodik talabi o‘quvchi o‘z fikrini, nimanidir og‘zaki va yozma bayon qilish xohishini va zaruriyatini yuzagi keltiradigan vaziyat yaratish hisobladi.
2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo ‘lishi lozim. Bu material qanchalik to‘liq, boy, qimmatli bo‘lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo‘ladi. Shunday ekan, o‘quvchilar nutqini o‘stirishning ikkinchi sharti nutqqa oid mashqlarning materiali haqida bo‘lib, o‘quvchi nutqi mazmunli bo ‘lishi uchun g‘amxo‘rlik qilish hisoblanadi.
3. Fikr tinglovchi tushunadigan so‘z, so‘z birikmalari, gap, nutq birliklari yordamida ifodalansagina tushunarli bo‘ladi. Shuning uchun nutqni muvoffaqiyatlari o‘stirishning uchinchi sharti – nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi. O‘quvchilarga til na’munlarini berish, ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish zarur. Nutqni eshitish va undan o‘z tajribasida foydalanish natijasida bolalarda ta’lim metodikasi asoslanadigan ongli ravishda “tilni sezish” shakllanadi.

Nutqni o‘stirishda uch yo‘nalish aniq ajratiladi: 1) so‘z ustida ishlash; 2) so‘z birikmasi va gap ustida ishlash; 3) bog‘lanishli nutq ustida ishlash.

Ona tili darslarida o‘quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar; ular kuzatishni, o‘ylashni va ko‘rganlari, eshitganlari, o‘qiganlari haqida to‘g‘ri bayon qilishni o‘rganadilar.

Ona tili darslari bolalar lug‘atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni to‘g‘ri tuzishni o‘rgatadi. Ona tili o‘qitishdan maqsad tilning jamiyat a‘zolari o‘rtasida bajaradigan ana shu vazifasi - o‘quvchilarni fikr bayon qilish faoliyatiga tayyorlash vazifasidan kelib chiqadi. Chunki kishilar o‘z faoliyatlarining barcha sohalarida bir-birlari bilan faol munosabatda bo‘ladilar. Ular doimo o‘zlar o‘rab olgan moddiy borliqdagi narsa-buyumlar, voqeа-hodisalar to‘g‘risida fikr yuritadilar va o‘z fikrlarini bir-birlariga ma‘lim qiladilar. Ona tili darslarida bunday matnlardan juda ko‘p foydalanishga to‘g‘ri keladi.

O‘qish darsi va u bilan bog‘liq holda olib boriladigan kuzatish, ekskursiya o‘quvchilarga tabiat hodisalari, kishilar hayoti va mehnati haqida, axloq qoidalari, boshqa kishilar bilan muomala qilish haqida bilim beradi. Bu darslarda bolalar nutqiga, uni shakllantirish va o‘stirishga keng imkoniyat mavjud. Badiiy asarlarni o‘qish, o‘qilganlarni qayta hikoyalash, ekskursiyada, predmet va tabiat hodisalarini kuzatish vaqtida ko‘rganlarini hikoya qilish o‘quvchilar og‘zaki nutqini o‘stirish vositasidir. Ona tili darslarida esa yozma nutqni o‘stirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Grammatikani o‘rganish va o‘qish darslarida o‘quvchilar bajaradigan so‘z birikmasi, gap tuzish, bayon, inshoga doir turli xil mashqlar nutqiy malakalarni egallashda yordam beradi.

O‘qish darslarida o‘quvchilar tabiat, jamiyat, unda yashovchi, kishilar hayoti, ularning o‘tmishi, hozirgi yashash tarzi, mashhur kishilar haqida, vatanning tabiatini: ob-havosi, boyliklari, hayvonot dunyosi va boshqalar haqidagi bilimlarni egallaydilar.

O‘quvchilar nutqini o‘stirish o‘z metodik vositalariga ega, o‘zining mashq turlari bor. Bularda eng muhimlari bog‘lanishli nutq mashqlari hisobladi.

Nutq o‘stirishda izchillik to‘rt shartni, ya’ni mashqlarning izchilligi, istiqboli, xilma-xilligi, xilma xil mashq turlarini umumiy maqsadga bo‘ysundirish ko‘nikmasini amalga oshirish bilan ta’minlanadi. Har bir yangi mashq oldingisi bilan bog‘lanadi va keyingisiga o‘quvchilarni tayyorlaydi, umumiy maqsadga bo‘ysunga holda yana qandaydir yangilik qo‘shadi.



Maktabda o‘quvchilar nutqini o‘stirishga ona tili o‘qitishning asosiy vazifasi deb qaraladi. Nutq o‘stirish faqat ona tili va o‘qish darslaridagina emas, balki o‘quv rejasidagi barcha fanlar (tabiatshunoslik, matematika, texnologiya, tasviriy san’at, musiqa darslari)ning, shuningdek, sinfdan tashqari o‘tkaziladigan tadbirdarning ham vazifasidir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaring kasbiy faoliyatida juda kerakli hisoblanadi, chunki maqolada eng dolzarb masalalardan biri bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi bir necha texnalogiyalarni amaliy, ya’ni dars jarayonida qo‘llash haqida fikr va mulohazalar o‘rin olgan. Shu bilan birga ushbu mulohazalar yanada tushunarliroq bo‘lishi uchun boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish darslarining ijobjiy tomonlari ham ko‘rib chiqildi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda shakllantirish hozirgi pedagoglarning asosiy vazifasidir.

### References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Har qaysi davlat, har qaysi xalq intellektual salohiyati, yuksak ma’naviyati bilan qudratlidir. <https://uza.uz/> 20-02-2020.
2. Berdiyeva Z. Alisher Navoiy asarlarida mutolaa va kitobxonlik masalalari. // Fan, ta’lim, madaniyat va biznesda internet va axborot-kutubxona resurslari. Xalqaro konferensiya materiallari «Central Asia – 2022». – Andijon. 25–27-may, 2022. 156-160 b.
3. Murzayeva M. O‘qishning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni // Fan, ta’lim, madaniyat va biznesda internet va axborot-kutubxona resurslari. Xalqaro konferensiya materiallari. – Andijon. 25–27-may, 2022. 285-287 b.
4. Qosimova K, Matchonov S, G ‘ulomova X, Yo ‘ldosheva Sh, Sariyev Sh Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi Toshkent “NOSIR” nashriyoti 2009
5. Erkaboyeva N. O ‘zbek tilidan ma ‘ruzalar to ‘plami “YOSH KUCH” Toshkent-2019.
6. O ‘zbek mulliy ensiklopediyasi. 2000-2009 .
7. МУМИНОВА Д. THE BOOK IS THE CULTURAL AND SPIRITUAL HERITAGE OF THE NATION //O ‘ZBEKİSTON MILLİY UNIVERSİTETİ XABARLARI, 2022,[1/10] ISSN 2181-7324.
8. Akbaralievna M. D. TALABALARNI IJTIMOIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHDA OILAVIY MUTOLAA MADANIYATIGA ERISHISHNING MA’NAVİY İMKONİYATLARI //E Conference Zone. – 2023. – C. 13-19.
9. Akbaralievna M. D. CONTENT AND ESSENCE OF INTEREST IN LIBRARIES IN FAMILIES //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2022. – T. 2. – №. 1.5 Pedagogical sciences

